

UDK 373.3:372.46

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING  
METODIK ASOSLARI VA UNING TA‘LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI**

**Turanazarova Nilufar Rahmonqul qizi,**

JDPU Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi, Stajyor-o‘qituvchi.

E-mail: turanazarovanilufar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18957938>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning metodik jihatlarini yoritishga qaratilgan. O‘quvchilarning nutqiy faoliyatida talaffuz, grammatika va nutqni boyitish kabi muhim jihatlarni shakllantirishga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘quvchilarga muloqot madaniyatini, adabiy til me‘yorlariga rioya qilishni, odob-axloq qoidalariga asoslangan nutq madaniyatini shakllantirish muhimligi ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zi:** Nutqni rivojlantirish metodikasi, talaffuz me‘yorlari, grammatik to‘g‘rilik, nutq madaniyati, muloqot madaniyati, pedagogik yondashuv, fikrni mantiqiy ifodalash, ta‘lim jarayonidagi metodlar, didaktik o‘yinlar, o‘quvchilarni tarbiyalash jarayoni, o‘zbek tilining adabiy normasi, nutqiy faoliyat

**Аннотация:** Данная статья призвана осветить методические аспекты развития речи учащихся начальных классов. В речевой деятельности учащихся основное внимание уделяется формированию таких важных аспектов, как произношение, грамматика и обогащение речи. Также подчеркивается важность формирования у учащихся культуры общения, соблюдения норм литературного языка, культуры речи, основанной на правилах этикета.

**Ключевое слово:** методика развития речи, нормы произношения, Грамматическая правильность, культура речи, культура общения, педагогический подход, логическое выражение мысли, методы в образовательном процессе, дидактические игры, процесс воспитания учащихся, литературная норма узбекского языка, речевая деятельность

**Annotation:** This article is aimed at highlighting the methodological aspects of the development of speech of Primary School students. In the speech activity of students, attention is paid to the formation of such important aspects as pronunciation, grammar and speech enrichment. It is also emphasized that it is important for students to form a culture of communication, adherence to literary language norms, a culture of speech based on the rules of etiquette.

**Keyword:** methodology for the development of speech, pronunciation norms, grammatical correctness, speech Culture, Communication Culture, pedagogical approach, logical expression of thought, methods in the educational process, didactic games, the process of educating students, the literary norm of the Uzbek language, speech activity

Bugungi kunda ta‘lim sohasidagi jadal rivojlanish davrida har bir pedagog ta‘lim sohasidagi vazifasiga to‘g‘ri yondoshmog‘i kerak. Aynan uning oldida turgan maqsadi va bu maqsadga yetish uchun mavjud to‘siqlar yoki shartlar bilan yaqindan tanishib chiqish asosiy faktor bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqi o‘ziga xos bo‘lib bir qancha talablarga o‘quvchilar yoshiga, psixologik rivojlanishiga va ta‘lim bosqichiga mos holatda bo‘lishi kerak. Nutqiy faoliyatda bunday talablarni yuzaga chiqishining ayrim jihatlari o‘rganib chiqishi shart:

Nutqqa qo‘yiladigan talablarga oid **to‘g‘ri talaffuz** qilish qoidasi maxsimal talab darajasida :

• So‘zlarni aniq, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish. So‘zlar orasida pauzalarni (to‘xtamlarni) to‘g‘ri qo‘yish; nutqda pauzaning ahamiyati yoki fikrdan olinadigan ma‘noga ta‘sirini anglash;. Shevada oid so‘zlarning nutq uslublari doirasida qo‘llanilish normasi va adabiy til me‘yorlariga mos talaffuz qilish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqi grammatik jihatdan **to‘g‘ri nutq** hisoblanishi uchun: Fikrni ifodalashda so‘zlarning ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol kabi gap bo‘laklari tarzida shakllantirilib gap hosil bo‘lishi: So‘zlar o‘quvchilar nutqida kerakli kategoriyalar bilan to‘g‘ri shakllanishi: ko‘plik qo‘shimchalari, egalik qo‘shimchalari, fe‘l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini boyitish va fikrning mazmuniy, mantiqiy ahamiyati darajasida:

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida foylanayotgan so‘zlarni boyitib, gapda so‘zlarni takrorlashdan asta-sekin uzoqlashtirib sof ravon so‘zlash. Gaplarning mazmunini aks ettirishdagi mantiqiy ketma-ketlikni saqlash. Gapning boshlanishi, o‘rtasi va oxirini ajratish, bu orqali fikrni boshlash, asosiy mazmun ifodalanadigan qism va xulosa bo‘lagiga xos so‘zlash qobiliyatini o‘stirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘ralgan fikrga diqqat bilan eshitish orqali aynan javob qaytarish nutqning mazmundorligini ta‘minlashini o‘rgatish; eshitgan yoki o‘qigan matn mazmunini tushunib, unga munosabat bildirishi; savollarga mazmunli va tushunarli javob bera olish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yuqoridagilar bilan bir qatorda boshqalar bilan muloqotda odobni saqlash (salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash), o‘z fikrini hurmat bilan ifoda etish nutq madaniyatini tashkil etishini amaliy tarzda o‘zlashtirishlari dolzarb va ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ahamiyatli hisoblanadi. Rasmga qarab hikoya tuzish, tasavvurga asoslangan voqealarni gapirib berish, erkin fikr bildirishi uchun imkon yaratish (masalan: “Men katta bo‘lsam...” kabi) nutq jarayonida ijodiy fikrlash va fikrni ifoda etishda mohiyatga e‘tibor qaratishga o‘rgatadi.

Ushbu ma‘lumotlarga tayanilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (1–4-sinflar) nutqini rivojlantirish bo‘yicha *metodik ko‘rsatma tarzidagi umumiy tavsiyalarni* taqdim etishda o‘quvchilarning yoshi, psixologik rivojlanishi va o‘quv bosqichi xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bunday yondashuv o‘qituvchiga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini samarali shakllantirishga imkon yaratadi.

### **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar**

**Talaffuzni shakllantirish bo‘yicha.** Qisqa fonetik mashqlar o‘tkazish: *bo‘g‘inlash lola, bola, nola, xola; lo-la, bo-la, no-la, xo-la.* Albatta mashqlarni turli ko‘rinishda tashkillashtirish mumkin. **Lo, bo, xo, no, la ushbu bo‘g‘inlarni birlashtiring!** Pauza qo‘llashga va gap ohangini ifodalashga e‘tibor qaratish: *Bahor yurtimizga o‘zagacha bir joziba olib keldi tabiat kamalak ranglarda tovlanib, gullar iforiga to‘yingan shamol mayin insonlar yanoqlarini sillab sekin bahor deya qulloqlarga shivirlayotganday go‘yo.* Adabiy til me‘yorlariga o‘rgatish maqsadida didaktik o‘yinlardan kengroq foydalanish. (Shevalarni chegaralash)

**Nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish.** Gap tuzish uchun mashqlar: *bobosining bolalar ketadilar uyiga ta‘tilda.* (ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol kabi gap bo‘laklaridan foydalanishni izchil o‘rgatish). So‘zlarni gapda kategoriyalar bilan shakllantirgan holda qo‘llash: **Oila... biz yetti kishi ..... -da, -ga, -dan, -lar, -miz, -siz, -lari.** (o‘quvchilarni ko‘plik, egalik, fe‘l zamonlari va kelishik qo‘shimchalari bilan tanishtirish) So‘zlanayotgan fikrlar qaysi vaqtga nisbatan va grammatik normasi qanday kategoriyalarga asoslanadi (zamon qo‘shimchalari, masalan, noto‘g‘ri zamon ishlatish) **O‘quvchilar nutqini boyitish va fikrning mazmuniy, mantiqiy ahamiyati anglatish.** So‘z boyiligini oshirish uchun alifbodagi harflar ketma-ketligiga asoslanib so‘zlar yozish (belgilangan vaqt ichida, darsda) – o‘quvchilar yangi so‘zlar kashf etadi. O‘zlari topgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish. (Aniq belgilangan mavzu asosida) Gaplarning mantiqiy ketma-ketligini bog‘lovchi so‘zlar: **avval, keyin, nihoyat, shundan so‘ng** kabilarni qo‘llash orqali ifodalash. O‘quvchilarga fikrni to‘liq bayon qilishni o‘rgatish: fikr boshlanishi, rivoji va yakunini ifodalash. Har bir o‘quv mashg‘ulotida eshitilgan yoki o‘qilgan matn asosida savol-javob o‘yinlari tashkil etish. O‘quvchilarda qayta hikoyalash (ikki xil ko‘rinishda) aynan matn mazmuni takrorlash yoki ijodiy davom ettirish. Matnni tushunish va mazmuni yodda saqlash uchun savollar berish: “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Kim uchun?” kabi savollar. Umumiy xulosaga keladigan bo‘lsak nutqning tarbiyaga ta‘siri tomonini ya‘ni o‘quvchilarni kundalik muloqot shakllariga: salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash vaziyatga mos holda emas odob-axloq qoidalariga boinoan javob qaytarish, jamoada bir-birining fikrini hurmat qilish, so‘z bermasdan gapirmaslik madaniyatini shakllantirish albatta madaniy-tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ham unutmazlik kerak, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqot madaniyati shular asosida rivojlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdullayeva, M. (2016). Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish yo‘llari. Toshkent: Ilm ziyo.
2. Jalolov, J. (2015). Umumiy pedagogika. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
3. Xolboyeva, D. (2022). “Muloqot va nutq madaniyati – shaxs taraqqiyotining mezonini”. Pedagogik izlanishlar jurnali, №1, 55–60-betlar.
4. PISA xalqaro baholash dasturida topshiriqlar tayyorlashda matnlarning o‘rni. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya jurnali, 2023 yil, 2(9), 80–83-betlar.
5. Rasulova, G. (2020). Ona tili va adabiyotini o‘qitishda interfaol usullarni qo‘llash. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 3(2), 45-49.